

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti

rektor
I. Madjidov
2026-yil

IKKINCHI VA UNDAN KEYINGI OLIV TA'LIM
BO'YICHA BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHLARI
UCHUN SIYOSATSHUNOSLIK FANIDAN IMTIHON
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI
(ta'lim yo'nalishlarga mos fan bo'yicha)

Toshkent - 2026

Tuzuvchilar:

O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti "Siyosatshunoslik" kafedrası kafedrası professori, siyosat fanlari doktori K.Mirzaaxmedov

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy unversiteti "Siyosatshunoslik" kafedrası o'qituvchisi, A. Astanov

Taqrizchilar:

O'zLiDeP Siyosiy Kengashi Ijroiya qo'mitasi raisining Tashkiliy-partiyaviy ishlar va kadrlar bo'yicha o'rinbosari, B.Yakubov

O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti "Siyosatshunoslik" kafedrası professori, I.Ergashyev

Mazkur dastur Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'quv-uslubiy Kengashining 2026-yil ____ - ____dagi ____-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.

KIRISH

Siyosatshunoslik fani bo'yicha ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim bo'yicha bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kiruvchi abituriyentlar uchun tuzilgan imtihon dasturi professional ta'lim muassasalari hamda umumta'lim maktablarining dasturi asosida tuzilgan bo'lib, abituriyentlarning ko'nikma va malakalarini aniqlashda foydalaniladi.

“Siyosatshunoslik” bo'yicha kasbiy (subbat) imtihonlar abituriyentlarning Siyosatshunoslik ta'lim sohasida nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llay olishi bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Fanning maqsadi va vazifalari

“Siyosatshunoslik” fani bo'yicha tuzilgan ushbu dastur abituriyentlarning shu sohada bo'lgan qiziqishi, bilim darajasini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

Mazkur dasturning asosiy vazifasi “Siyosatshunoslik” fanining predmeti, maqsad va vazifalari bo'yicha egallagan bilim va malakalarini baholash uchun tuzilgan. Mazkur dastur zamonaviy siyosatshunoslik doirasidagi bilimlarni shakllantirish va tahliliy ko'nikmalarni qaror toptirish, siyosatning fundamental modellardan foydalanish va voqealarni tahlil etish haqida bilim berish, zamonaviy siyosiy tahlil usullari va texnologiyalarni amaliy jarayonlarga qo'llash, siyosiy bashorat modellari o'rgatish, siyosiy axborot yig'ish va ularni tizimli tahlil qilish ko'nikmalarni shakllantirish, siyosiy tadqiqot texnologiyalari bilan tanishtirish va ularni amalda qo'llay bilish ko'nikmalarini o'zlashtirishni taqozo etadi.

Imtihonda abituriyentlar, avvalo, “Siyosatshunoslik” fani bo'yicha egallagan bilim va malakalarini amaliyotda qo'llay olishi va mantiqiy fikr-mulohaza yuritish olishlari talab etiladi.

Abituriyentning bilimiga qo'yiladigan talablar

Abituriyentga “Siyosatshunoslik” fani bo'yicha 2026/2027 o'quv yili imtihon dasturi bo'yicha “Siyosatshunoslik” faniga quyidagi talablar qo'yiladi:

Siyosatshunoslikka kirish fanining obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari. Siyosat tushunchasi ma'no-mazmuni va tadqiqot uslublari, qonuniyatlari va kategoriyalari, turli xil talqinlari. Siyosatning jamiyat hayoti sohalari bilan aloqadorligi va unga ta'siri. Siyosat to'g'risidagi fanlar, uning o'ziga xos xususiyatlari. Siyosatshunoslikni fan sifatida shakllanishi. Siyosatshunoslikning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqalari. Siyosatshunoslik fani o'rganishning ahamiyati. Siyosat haqida ilk qarashlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi. Qadimgi Sharqda ilk siyosiy qarashlar va nazariyalarning paydo bo'lishi, Qadimgi Misr va Mesopotamiyadagi ilk siyosiy qarashlar va uning o'ziga xos jihatlari. Qadimgi Xitoy va Hindistondagi ilk siyosiy qarashlar va uning o'ziga xos jihatlari. Qadimgi Yunoniston va Rimdagi siyosiy fikrlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi. Suqrot, Platon, Aristotel, M.T.Seseron kabi allomalarning siyosiy qarashlari va ta'limotlari. G'arb Uyg'onish davri mutafakkirlari N.Makiavelli, T.Gobbs, J.Lokk, E.Berk, Sh.Monteske, J.J.Russo, T.Jefferson, A.Gamilton, T.Medison, I.Kant, G.V.Gegelning siyosiy ta'limotlari. Hozirgi davrdagi siyosiy nazariyalar va konsepsiyalar. O'rta asr islom dunyosidan yetishib chiqqan mutafakkirlar

Aflotunning siyosiy asarlarini va Aristotelning ko'plab eng muhim asarlarini meros qilib oldilar, ular islom dunyosi doirasida talqin qildilar, ba'zilar utopiyaga, boshqalari esa mavjud siyosatni amaliy isloh qilishga qaratilgan edi. O'rta asr Sharq Uyg'onish davri Markaziy Osiyo mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Nizomulmuluk, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Zahiriddin Bobur, Alisher Navoiyning siyosiy qarashlari. Zamonaviy davrda G'ardagi siyosiy ta'limotlar va nazariyalar. M.Veber, G.Moska, V.Pareto, R.Mexeslesning siyosiy qarashlari va konsepsiyalari. G.Lassuell, R.Dal, O.Toftler, N.Bobbioning siyosiy konsepsiyalari va ularning o'ziga xos jihatlari. Mustaqillik davrida siyosiy fanlarda yangicha siyosiy g'oyalar hamda yondashuvlarga ehtiyojning paydo bo'lishi va uning zarurligi. Siyosatning maqsadi va vazifalari o'zgarishi. Siyosatga yangicha qarash. Siyosatda umumiy tirof etilgan milliy va umuminsoniy demokratik printsiplarga asoslanish. Totalitar rejim inqirozi. O'zbekistonda milliy davlatchilik asoslarining e'tirof etilishi va demokratik huquqiy davlat qurish maqsadlari. Mustaqillik va O'zbekistonda siyosatshunoslik fani shakllanishi va rivojlanishining yangi bosqichi. Mustaqillik va xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini qo'lga kiritishi. Siyosiy nazariyalarning shakllanishi va rivojlanish evolyutsiyasi, siyosiy nazariyalarning mohiyati. Klassik siyosiy nazariyalar. Zamonaviy siyosiy nazariyalar. Siyosiy nazariyalarning qonuniyatlari. Siyosat nazariyasi – siyosiy g'oyalar, nazariyalar, ta'limotlar, konsepsiyalar va qadriyatlar haqidagi fan. Siyosat nazariyasida nazariya va amaliyot munosabati. Inson “siyosiy mavjudot” ekanligi. Siyosiy nazariyalarda hokimiyat masalasi. Siyosat nazariyasi siyosatshunoslik fanining nazariy asosi ekanligi. Siyosiy tadqiqotlar metodologiyasi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Siyosiy fanlarda tadqiqotlar olib borishning uslublari. Siyosiy tadqiqotlarda nazariy va amaliy bilimlar sintezi. “Political analysis” (siyosatning umumiy tahlili), “policy analysis” (amaliy siyosat tahlili) yoki “public policy analysis” va uning ahamiyati. Hokimiyat tushunchasi va uning universal xarakteri. Siyosiy hokimiyat va uning o'ziga xos xususiyatlari. Siyosiy hokimiyatni tuzilishi va uni amalga oshirish mexanizmlari Kratologiya – hokimiyat haqidagi fan. Hokimiyat haqidagi konsepsiyalar. M.Veberning hokimiyat nazariyasi. Siyosiy hokimiyat subyekti, obyekti va resurslari. Siyosiy hokimiyat shakllanishining demokratik printsiplari. Siyosiy hokimiyat ko'rinishlari. Siyosiy hokimiyat va siyosiy partiyalar. Siyosiy hokimiyat legitimligi va samaradorligi. Davlat hokimiyati. Davlat hokimiyatning bo'linishi tamoyillarini bilishi kerak.

Imtihon natijalarini baholash mezonlari

Imtihon suhbat shaklida o'tkaziladi hamda suhbat natijasi o'tdi yoki o'tmadi shaklida baholanadi.

Imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Imtihon komissiyasi faoliyati 2026/2027 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Siyosatshunoslik fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi ta'lim yo'nalishlar bo'yicha imtihon komissiyasi tarkibi odatda uch nafar a'zodan kam bo'lmagan holda tashkil etiladi.

Imtihon natijalari uch kun muddatdan kechiktirilmagan holda e'lon qilinadi.

Siyosatshunoslik fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi ta'lim yo'nalishlar bo'yicha imtihon natijalaridan norozi abituriyentlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha appellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Appelyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Appelyatsiya komissiyasi imtihonni o'tkazgan oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abituriyent imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab, 24-soat ichida appelyatsiya komissiyasiga og'zaki yoki yozma shaklda murojaat etishi shart. Belgilangan muddatdan keyin murojaatlar qabul qilinmaydi.

Appelyatsiya komissiyasi abituriyentning faqat o'zining ishi bo'yicha bildirilgan murojaatini yuzma-yuz abituriyentning ishtirokida ko'rib chiqadi va yakuniy qarorni beradi.

Qabul komissiyasi mas'ul kotibi


Z. Raxmonov

Siyosatshunoslik fanidan savollar

1. Siyosiy nazariyalar va ta'limotlarning shakllanishi va uni o'rganish uslublari.
2. Siyosiy fanlarning siyosiy tahlil etish funksiyalari nimalardan iborat?
3. Siyosiy institut tushunchasi, tuzilishi va funksiyalari haqida nimalarni bilasiz?
4. Siyosiy tahlil va siyosiy tahlil metodlari haqida nimalarni bilasiz?
5. O'zbekistonda demokratik siyosiy tizimning rivojidagi dinamik o'zgarishlar tahlilini ochib bering.
6. "O'zbekiston – 2030 strategiyasi"ning 4-ustuvor yo'nalishi mazmuni va mohiyatini ochib bering.
7. Saylov kampaniyalarida elektorat bilan ishlash texnologiyalari haqida nimalarni bilasiz?
8. "O'zbekiston - 2030 strategiyasi"ning 1-ustuvor yo'nalishi mazmuni va mohiyatini ochib bering.
9. Siyosiy jarayonning asosiy tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
10. O'zbekistonda siyosiy tizimning rivojlanishi va zamonaviylashuvi jarayonlari haqida nimalarni bilasiz?
11. Siyosiy ishtirok turlari va ularning mazmunini ochib bering.
12. "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi zarur" g'oyasining amaliy ahamiyatini ochib bering.
13. Davlat hokimiyati bo'linishi tamoyilining genezisi va dinamikasi.
14. Siyosiy tizimning tuzulishi va tarkibiy qismlari.
15. Siyosiy partiyalarning rivojlanish tarixi va bugungi kunda jamiyat hayotida tutgan o'rni.
16. Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvi funksiyalarini amalga oshirilishidagi roli va ta'siri.
17. 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son Farmoni mazmuni va mohiyati.
18. Demokratiyaning tarixiy shakllari va ko'rinishlari.
19. Jamiyat siyosiy tizimida davlatning o'rni.
20. Davlat hokimiyati institutlari deganda nimani tushunasiz?
21. Siyosat sub'ektlari: tuzilishi, xususiyatlari, vazifalari va dinamikasi.
22. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining funksiyalari.
23. "O'zbekiston – 2030 strategiyasi"ning mazmunini ochib bering.
24. "Avesto" va undagi siyosiy-huquqiy tasavvurlar.
25. "Xammurapi qonunlari" – Bobil siyosiy fikrining muhim yodgorligi.
26. Qadimgi Sharqda siyosatga doir tasavvurlar shakllanishining tarixiy va siyosiy shart-sharoitlari.
27. Abu Nasr Forobiyning siyosiy ta'limoti.
28. Fozil jamiyat va undagi siyosiy munosabatlar.
29. Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asari va uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati.

30. Yusuf Xos Hojib (XI asr)-turkiy xalqlarning buyuk adibi. Uning “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim”) asarida davlat va siyosat masalalarining badiiy tahlili.
31. Yusuf Xos Hojib – turkiy xalqlarning buyuk adibi. Uning “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim”) asarida davlat va siyosat masalalarining badiiy tahlili.
32. Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asari va uning ahamiyati.
33. Amir Temur – buyuk davlat arbobi va sarkarda.
34. “Temur tuzuklari” – O‘rta asrlar siyosiy fikrining noyob va bebahomanbai.
35. Alisher Navoiy – O‘rta asrlar jahon ma‘naviy madaniyatining buyuk siymosi. Uning “Vaqfiya”, “Saddi Iskandariy”, “Tarix nizomi” va boshqa asarlaridagi siyosiy g‘oyalar.
36. Abu Nasr Farobiyning fozil va johil davlat konsepsiyasi.
37. Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asari-O‘rta asrlar siyosiy fikrining noyob yodgorligi.
38. “Temur tuzuklari”dagi siyosiy g‘oyalar.
39. Alisher Navoiyning “Saddi iskandariy” asaridagi siyosiy g‘oyalar.
40. Prezidentlik, parlamentar, yarim prezidentlik va yarim parlamentar boshqaruv shakllarini taqqoslash